

Umumta'lim maktabining 2025-2026- o'quv yili biologiya fanini o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun topshiriqlar varianti

8 - ___ sinf o'quvchisi _____ F.I.SH.

O'quvchi to'plagan umumiy ball: _____ (maksimal ball: 40) II- variant

1. (B) Golji majmuasining asosiy vazifasi berilgan javobni aniqlang.

- A) hujayrada sintezlanadigan moddalarni to'plash va tarqatish
- B) irsiy belgilarni nasldan naslga o'tkazadi
- C) oziq moddalarni parchalab, sitoplazmaga o'tkazadi
- D) hujayra qismlarini o'zaro bog'lab turadi


2 (B). Glikogenni glukozaga aylantirish bilan qonda shakar moddasi miqdorini oshiradigan gormonni aniqlang.

- A) tiroksin
- B) glukogon
- C) timozin
- D) androgen

3 (B). Jinsiy bezlarni boshqaruvchi gormon nomi va uni ishlab chiqaruvchi bez nomini belgilang.


- A) somatotrop - gipofiz
- B) gonadotrop - gipofiz
- C) adrenokortikoid - buyrakusti bezi
- D) gonadotrop - epifiz

4 (Q). Quyidagi rasmda odamdagi ayrim sekretsia bezlari raqamlash orqali berilgan. Shunga ko'ra, organizmdagi ayrim kasalliklar qaysi bez funksiyasi buzilishi natijasida yuzaga kelishi to'g'ri berilgan?



- A) a-I, b-II, c-III
- B) a-I, b-I, c-III
- C) a-III, b-II, c-I
- D) a-I, b-III, c-II

5 (Q). Rasmda tasvirlangan mushak ishi turini va unga xos xususiyatlarni aniqlang.




A) Dinamik ish - mushak qisqarib-bo'shashadi, qon aylanishi yaxshi bo'ladi
 B) Statik ish - mushak qisqarib-bo'shashadi, qon aylanishi yaxshi bo'ladi
 C) Statik ish - mushaklarni mustahkamlaydi, ammo qon aylanishi sust bo'lib, tez charchashga olib keladi.
 D) Dinamik ish - mushaklarni mustahkamlaydi, ammo qon aylanishi sust bo'lib, tez charchashga olib keladi.

6 (Q). Muskul turlari, ularning joylashuvi va funksiyasiga ko'ra jadvaldagi A – D harflari o'rniga mos javobni toping

Muskul turi	Boshqarilishi	Asosiy funksiyasi	Joylashuvi
1	ixtiyoriy	tana harakati, holatni ushlab turish	a
2	ixtiyorsiz	qonni butun tana bo'ylab haydash	b

- A) 1 - skelet mushaklari, a - faqat yurakda; 2 - silliq mushaklar, b - ichki a'zolar devorlari
 B) 1 - yurak mushagi, a - qonni butun tana bo'ylab haydash; 2 - silliq mushaklar, b - faqat yurakda
 C) 1- skelet mushaklari, a- suyaklarga birikkan; 2- yurak mushagi, b - faqat yurakda
 D) 1- silliq mushaklar, a - tana harakati, holatni ushlab turish; 2 - yurak mushagi, b - faqat yurakda

7 (Q). Quyidagi diagramma tibbiyot zulugi qo'yilgan va qo'yilmagan odam qonidagi ivish vaqtini solishtiradi. Diagrammadan foydalanib fikrlar to'g'ri bo'lsa **ha**, noto'g'ri bo'lsa **yo'q** deb javob bering.



1. Diagrammaga ko'ra, zuluk qo'yilgan odamda – qon ivishi sekin bo'ladi
 2. Tibbiyot zulugi so'lagi tarkibidagi girudin moddasi trombin faolligini bloklab, fibrin hosil bo'lishini sekinlashtiradi.
 3. Diagrammaga ko'ra, zuluk qo'yilmagan odam qonining ivishi sekin bo'ladi.
- A) ha; yo'q; ha

B) yo‘q; yo‘q; ha

C) ha; ha; yo‘q

D) ha; yo‘q; yo‘q

8 (Q). Odam organizmida ikki boshli (a) va uch boshli (b) muskullar qayerda joylashgan?

1) bilak sohasida; 2) tirsak sohasida; 3) yelkaning oldingi sohasida; 4) yelkaning orqa sohasida; 5) sonning oldingi sohasida; 6) sonning orqa sohasida; 7) boldirning orqa sohasida

A) a - 1, 3; b - 2, 4

B) a - 3, 6; b - 4, 7

C) a - 2, 5; b - 4, 7

D) a - 3, 5; b - 1, 4

9 (Q). III qon guruhli rezus manfiy odamlarda eritrotsit tarkibida qanday oqsillar bo‘ladi?

1) gemoglobin; 2) agglyutinogen A; 3) agglyutinogen B; 4) rezus omil; 5) agglyutinin α , β ;

A) 1, 3, 4


B) 1, 3

C) 1, 2, 3, 4

D) 1, 2, 4, 5

10 (M). Shifokor bemorda mushaklarning tez-tez qisqarishi, spazmlar va qo‘l-oyoqlarda uvishish kuzatilayotganini aniqladi. Qon tahlili natijasida kalsiy darajasi past ekani va paratgormon kam ishlab chiqarilayotgani ma‘lum bo‘ldi. Quyida paratgormon ishlab chiqarilishi va kalsiy darajasi o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatuvchi rangli grafik berilgan.

Grafikdan foydalanib mulohazalar to‘g‘ri bo‘lsa **T**, yoki noto‘g‘ri **N** belgisini qo‘ying



— paratgormon ishlab chiqarilishi; --- - qondagi kalsiy miqdori

1. Paratgormon kamayganda qondagi kalsiy pasayadi (gipokalsemiya), suyak zichligi ortadi, ammo mineral balansi buziladi.

2. Kalsiy mushak qisqarishi uchun zarur, gipokalsemiya nerv-mushak qo‘zg‘aluvchanligini pasayib spazmlarga olib keladi.

3. Paratgormon ishlab chiqarilishi 20% bo‘lsa, qondagi kalsiy $\approx 1.8-2.0$ mmol/L bo‘lishi mumkin (normadan past).

4. Qonda kalsiyning kamayishi paratgormon ishlab chiqarilishi bilan bog‘liq emas

A) TTTN

B) NTTN

C) TNTN

D) TTNN

topshiriq	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
Kalit	A	B	B	A	C	C	C	B	B	C
Daraja	B	B	B	Q	Q	Q	Q	Q	Q	M
Ball	2,5	2,5	2,5	4,5	4,5	4,5	4,5	4,5	4,5	5,5